8-SINFLAR UCHUN ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TEST SAVOLLARI
1-VARIANT

1.Kengayishi o'ta chegaralangan gap turini aniqlang?
A.So'z-gaplar B.Atov gap C.Shaxsi noma'lum gap D.Shaxsi umumlashgan gaplar
2.A.Navoiy "Munshaot" asarida yozishicha, Muhammad alayhissalom nimani "um ul- xabois"(yaramasliklar onasi) deb atagan?
A.kibrni B.mayni C.chog'irni D. sharobni
3.Robindranat Thokurning "Nur va soyalar" asarida Shoshibushon yashaydigan qishloqqa okrug sudyasi tushgan hovli atrofida qiziqish va qorquv bilan to'dalashib yurgan bolalar nimaga o'xshatilgan?
A.Bo'ri quvlagan quyon to'dasiga B.Mushukdan qo'rqqan sichqonga C.It quvlagan soqovga D.Yo'lbars orqasidan kuzatib borgan chiyabo'ri galasiga
4.Qaysi gap bo'lagi yordamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravshanlashadi?
A.Izohlovchi B.Aniqlovchi C.To'ldiruvchi D.Kesim
5.Mashrab va So'fi Olloyorning muhabbatlari, dunyoqarashlari bir – biriga hamohang edi. Gapdagi so'z birikmalari sonini aniqlang.
A.6ta B. 4ta C. 5ta D.7ta
6.Uyushiq bo'lakli gaplarda qo'llanadigan tinish belgilarining to'liq qatorini toping
A. Vergul, nuqtali vergul, tire. B.Vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta
C.Vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta D.Vergul, ikki nuqta, tire
7.Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo'lak qatnashgan javobni aniqlang.
A.Xatni uning o'ziga,Muqaddasga, bering. B.Saida uning xohishini,baxtga qarshi, payqamadi.
C.Anjumanda direktor Xoliqov ham qatnashdi. D.O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti.
8. "Mirzo Ulug'bek" fojiasida sarbadorlar qissasini Hofiz Abrudan eshitgan qahramon kim edi.?
A.Mavlono Shamsiddin Miskin B.Berdiyor C.Bek Arslon D. Abdurazzoq Samarqandiy
9.Bitishuvli birikmani aniqlang.
A.maktab tomon B.daryo bo'ylab C. ataylab aytmoq D.sizga atab
10. Kichik hayotiy detallardan katta umumlashma obrazlar yasay olish fazilatiga ega shoir nomi qaysi javobda?
A.G'G'ulom B.Sergey Yesenin C.Oybek D. M.Yusuf
11. Sinash ma'nosini ifodalaydigan ko'makchi fe'lni yozing
12.Usmon Nosirning qaysi she'rida haqiqiy hayot bolallik taassurotlari asosida muqoyasa qilinadi?
13.Kesim tarkibida egalik qo'shimchalarining yo'qligi muhim belgisi hisoblangan gap...
14."Kiprikdagi tong" asari muallifini ko'rsating
15.Tushuncha saqlanib , shakli o'zgargan so'zlarga uchta misol yozing.

8-sinf o’quvchilari uchun ona tili va adabiyot fanidan test savollari 2-variant

1.Gulzordagi oq, qizil, pushtirang gullar quyosh nurida rang-barang tovlanadi.Gapdagi so’z birikmalari sonini aniqlang/
A.7ta B. 8ta C. 9ta D.6ta
2.So’zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o’zaro birikuvidan qaysi til birligi hosil bo’ladi?
A.qo’shma so’z B.So’z birikmasi C. gap D. B va C javob to’g’ri
3.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarining “Elig javabi O’gdulmishka” deb nomlangan qismida odamga juda aziz deb qanday kishilar ko’rsatiladi?
A.kamtar B.sabrli C.rostgo’y D. sodiq
4.Qaysi javobda eganing ma’nosi ta’kidlab ko’rsatilgan gap bor?
A.Maqsadim-o’qimoq. B.Urush-quyon ovi emas. C.Tinchlik- farovon hayot manbai. D.Bu-siz uchun katta sinov.
5. Kecha kun bo’yi yomg’ir yog’ib , bugun tindi, quyosh va to’zg’igan bulutlar yetilayozgan ertangi sholipoyalarga birin-ketin panjalarini cho’zmoqdalar. Qaysi asarda yuqoridagi tasvir uchraydi?
A.A.Muxtor „Chinor“ B.P.Qodirov „Avlodlar dovoni“
C.R.Thokur“Nur va soyalar“ D.“Ufq“
6.X.To’xtaboyevning „Sariq devni minib“ asarida Krupskaya nomli maktab-internat o’quvchilarining necha gektar mevazor bog’I bor edi?
A. 20 gektar B.35 gektar C. 25 gektar D. 30 gektar
7.Jo‘nalish kelishigi shakli bilan ma’nodoshlik hosil qila oladigan ko’makchi qaysi javobda berilgan?
A.tomon B.bilan C.haqida D.Bunday ko’makchi mavjud emas.
8.Ortiqcha so’z qaysi javobda?
A.afsus B.nadomat C.afsuslanmoq D.attang
9.Qani, yomg’ir tinmay yog’aversa. Gap kesimi haqidagi noto’gri mulohazani belgilang
A.Sodda kesim B.Fe’l kesim C.Nomustaqil kesim D.Mustaqil kesim
10.Muqimiy „Sayohatnomasi“ning „Qo’qondan Shohimardongacha“ qismida nechta qishloq tasviri berilgan?
A.8ta B.9ta C.10ta D.11ta
11.“O‘gri“ hikoyasida „Fuqaroning arzga borishi ahbobning izzati“ maqoli kimniing tilidan aytiladi?
12.Ko’m-ko’k osmonda suzib yurgan paxtadek yumshoq bulutlar yonayotgandek lovullardi. Gapdagi yasama so’zlar sonini ko’rsating

13. Bosh kelishikdagi so’z yoki otli birikma bilan ifodalaanadigan bir tarkibli gapni ko’rsating
14.“Avlodlar dovoni“ romanida Sherxon Boburning farmoni bilan uch ming kishi qatli om qilinganini ta’kidlab, bu voqea qaysi qo’rg’onda sodir etilganini aytib o’tadi?
15.Ismlarning egalik qo’shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo’shimchalari bilan ozgarishi...